



---

**DUNYODAGI GLOBAL MUAMMOLAR VA MA'NAVYI IMMUNITETNING INSON  
HAYOTIDAGI O'RNI**

**Maxmudova Nigora Baratovna**  
PhD, dotsent, Buxoro davlat universiteti  
[nigoratillojon2009@rambler.ru](mailto:nigoratillojon2009@rambler.ru)

**Muzaffarova Gulasal Maxsutovna**  
talaba, Buxoro davlat universiteti  
[muzaffarovagulasal@gmail.com](mailto:muzaffarovagulasal@gmail.com)

**Аннотация:** Ushbu maqolada jamiyatimizda avj olgan global muammolar ko'rib chiqildi, hamda ma'naviy boylikning naqadar inson uchun muhimligi ma'naviyimmunitet egasohaqida fikr yuritildi.

**Калит сўзлар** ma'naviyat, respublika, pedofiliya, qadriyat, jamiyat, g'arb, shaxs, huquq korruptsiya, global muammolar, suitsid, oila instituti, imunitet.

**ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В МИРЕ И РОЛЬ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В  
ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА**

**Махмудова Нигора Баратовна**  
PhD, доцент, Бухарский государственный университет  
[nigoratillojon2009@rambler.ru](mailto:nigoratillojon2009@rambler.ru)

**Музаффарова Гуласал Максutowна**  
студент, Бухарский государственный университет  
[muzaffarovagulasal@gmail.com](mailto:muzaffarovagulasal@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются глобальные проблемы, возникшие в нашем обществе, и размышляется о важности для человека духовного богатства и обладания духовным иммунитетом.

**Ключевые слова:** Духовность, республика, педофилия, ценности, общество, запад, человек, закон, коррупция, глобальные проблемы, суицид, семейный институт, иммунитет

**GLOBAL PROBLEMS IN THE WORLD AND THE ROLE OF SPIRITUAL IMMUNITY  
IN HUMAN LIFE**

**Makhmudova Nigora**  
PhD, docent, Bukhara state university  
[nigoratillojon2009@rambler.ru](mailto:nigoratillojon2009@rambler.ru)

**Muzaffarova Gulasal**  
student, Bukhara state university  
[muzaffarovagulasal@gmail.com](mailto:muzaffarovagulasal@gmail.com)

**Abstract:** This article examines the global problems that have arisen in our society and reflects on the importance of spiritual wealth and spiritual immunity for a person.



---

**Key words:** Spirituality, republic, pedophilia, values, society, West, man, law, corruption, global problems, suicide, family institution, immunity.

### KIRISH

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi.

### ASOSIY QISM

Darhaqiqat manaviy boylig insonning hayot yo'lida katta ahamiyatga ega. 21-asr texnologiyalar va o'sish asri. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik muammolar asri xamdir. Oxirgi yillarda fuqarolar o'rtasida tartibsizliklar, voyaga yetmagan fuqarolarning turli xil g'arbdan kelgan oqimlarga qo'shilishi, oilaviy muammolarning kupayishi va oila institutining buzilishi, pedofiliya, zo'ravonlik, o'z joniga suyuqast, ya'ni suitsid, voyaga yetmagan fuqarolar o'rtasida huquq buzarlilik holatlari, korrupsiya, erta turmush, fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmatning yo'qolib borishi, loqaydlik kabi muammolar inson qadriyatini pasayishiga, hamda, jamiyatda mentalitetimizni qadrsizlanishi, ijtimoiy tartibsizliklar kabi muammolar ko'payib bormoqda. Yuqorida sanab o'tilgan respublikamizda global muammoga aylanishga ulgurman huquq buzarliliklarning ortida nima turadi deb o'ylaysiz? Bu kabi muammolar negizida insonning ma'naviy immuniteti pastligi sabab bo'la oladimi? Misol uchun: yoqorida aytib o'tilgan muammolarni virus deb olsak, virusga qarshi vaksina bu, ma'naviy boylig. Manashu vaksinani qabul qilgan inson ma'naviy immunitetga ega bo'ladi. Ma'naviy immuniteti mustahkam bo'lgan inson esa, o'z navbatida to'g'ri yo'lni tanlydi va jamiyatda o'z o'rnini topa oladi.

Yoshlar o'rtasida paydo bo'lgan illatlardan biri loqaydlik va maqsadsizlikdir. 21-asr ilmfan va texnika, taraqqiyoti asri. Zamonaviy dunyoni kompyuter, mobil telefoni, nano texnologiyalar mahsulotlarisiz tassavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli yoshlarning dunyoqarashi tubdan o'zgarib ketgan. Bugungi yoshlar oldiga maqsad qo'yib, o'z ustida ishlashni emas, balki o'z vaqtini bekorga sarflayotgandek bo'lmoqda. Ular kunlarini ijtimoiy tarmoqlarda, virtual olamda o'tkazishni afzal ko'rishmoqda. Internetga muhtalo bo'lish 21-asrning bedavo va juda og'ir kasalligidir. Shuningdek, oilasini tashlab, spirtli mahsulotlar va giyohvandlikka muhtalo bo'layotganlarning kelajagini porloq deb bo'lmaydi. 21-asrda yoshlar orasida ma'naviyat ortga ketmoqda. Bu kabi viruslarni yo'qotish uchun esa maktabdan boshlab to oliy o'quv dargohlariga qadar ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam va zamonaviy tarzda olib borish maqul. Chunki hozirgi kunda yosh avlodni ma'lum bir mavzuga qiziqtirish uchun alohida strategiya kerak. O'smirlarda sog'lom mustaqil fikr yurishlarida va to'g'ri yo'lni tanlab, hayot boshlarida, ko'maklashish va poydevorni mustahkamlashga alohida e'tibor va kuch zarur. Yaqin kunlarda respublikamizda juda ashaddiy jinoyatlar soni ko'payib bormoqda. Shu o'rinda erta turmush qurish ham global muammolardan biri sifatida ko'rilmogda. Respublikamizda yana bir jirkanch va global muammoga aylangan jinoyatlardan biri pedofiliya, hamda zo'ravonlik tobora ko'payib bormoqda. Har bir voyaga yetmagan shaxs jamiyatning bir qismi, hamda, bolalarning huquqi to'liq ta'minlanishi shart. Shu sababli ham bu muammoni hal qilish borasida hamma oyoqqa turishi talab etiladi. Aks holda yuzaga chiqayotgan bu kabi muammolar keyingi o'n yilliklar uchun haqiqiy epidemiyaga aylanadi. Jamiyatni milliy mentalitetga yot turli tahdidlardan himoya qilish, vatanga sadoqat, istiqloq g'oyalariga, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi globallashuv zamonida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda



---

### **XULOSA**

Yuqorida takidlab o‘tilgan ma‘naviy immuniteti mustahkam jamiyat, har doim, daxshatli ijtimoiy- siyosiy epidemiya , viruslarga doimiy qarshi tura oladi va yengib o‘tadi. Kelajak– yoshlar qo‘lida, yoshlarni sog‘lom ruhda kamol topishlarida esa oila va jamiyatimizning o‘rni katta deb o‘ylayman. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni muntazam olib borish va shu kabi tadbirlarda faol ishtirok etishimiz va butun O‘zbekiston yoshlarini jalb etishni o‘z oldimizga maqsad qilib olishimiz lozim. Shu kabi ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlarga yoshlarni va butun O‘zbek xalqini chorlashimiz va milliy qadriyatlarimizni, ko‘p asrlar davomida bizgacha saqlanib kelingan O‘zbekona urf- odatlarimizni bizdan keyin ham bardavomligini ta‘minlashga katta turtki bo‘la oladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” 2008, Islom Karimov
2. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” 2016, Shavkat Mirziyoyev
3. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)
4. Pedofiliya — kattalar yoki o‘smirlar balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy moyillikni boshdan kechiruvchi psixiatrik kasallikdir